

**PAXTA CHIGITI IFLOSLIGINI MOMIQ SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH****Sarbarov Xusanboy Nurmamat o'g'li***Namangan muxandislik-texnologiya instituti, stajyor tadqiqotchi***Qadam Jumaniyazov***Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot institute direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari*

**Annotatsiya:** *Ushbu ishda, vintli konveyerni takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqdik va bunda vintli konveyer qobig'ini yarim silindr qismini paxta chigitlarini tashish jarayonida ajralib chiqayotgan chiqindilarni tashqariga chiqarishni samarali amalga oshiruvchi, turli yuzaga almashtirish tavsiyasi ishlab chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *vintli konveyer, linter, paxta chigiti, aralash chiqindilar.*

**ASOSIY QISM****Paxta chigitini tashish jarayonida chiqindilardan tozalash qismiga ega vintli konveyerni ishlab chiqish**

Paxtani dastlabki qayta ishlash texnologik jaryonida uni chiqindilardan tozalash samaradorligini oshirish masalalari muxim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda paxta va tolni tozalash jarayonini tadqiq etish bo'yicha katta xajmdagi ishlar bajarilgan va natijada qator yangi va takomillashtirilgan texnologik mashinalar va qurilmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ishlab chiqarishda qo'llanilishi, umuman olganda, paxta tozalash sanoati ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatiga bo'lgan talabni qondiradi.

Shu bilan birga, paxta chigitini chiqindilardan linterlashdan oldin tozalash masalalariga, bizning nazarimizda, oxirgi vaqtlarda tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha, e'tibor qaratilmay kelinmoqda. Linterlashdan oldin paxta chigitini tozalash jarayoni samaradorligini oshirilishi olinayotgan momiqni, qo'shimcha chiqindilarni kamayishi xisobiga, sifatini oshishiga olib keladi va bu qator tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.

Ma'lumki, olinayotgan momiq sifatini, undagi chiqindilar miqdorini kamayishi xisobiga, yaxshilash uchun tavsiyalarga ko'ra chigitlar pnevmatik va mexanik tamoyilda ishlovchi linterlashdan oldin tozalagichlarda ketma-ket tozalanadilar. Ammo, paxta tozalash korxonalarida bunday chigit tozalagichlardan juda samarasiz foydalaniladi, ba'zi xollarda esa umuman qo'llanilmaydi, bular esa,

albatta, olinadigan momiq sifati va chigitlardagi chiqindilar miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda, ushbu tadqiqotlarni maqsadi etib paxta chigitlarini linterlashdan oldin tozalash samaradorligini oshirish. Ularini izlash belgilandi va tadqiqot ob'ekti sifatida paxta chigitlarini arrali jindan linter tozalash korxonalarida paxta mashinalariga tashishda qo'llaniladigan vintli konveyer tanlab olindi. Vintli konveyerni tanlash sababi-paxta chigitlari massasini tashishda, ularni

ilgarilanma xarakatlanishi, tinimsiz aylanishida va aralashishida chiqindilari chigitdan jadal ajralishi kuzatiladi, ammo ajralib chiqqan bunday chiqindilarni vintli konveyerdan chiqib ketishi imkoniyati yo'qligi natijasida, ular yana chigitlar massasi bilan aralashib ketadilar, linter mashinalariga kelib tushadilar, bu esa olingan momiq sifatini pasayishiga olib keladi.


Paxta chigitlarini tashish jarayonida chiqindilardan tozalash imkoniyatini beruvchi vintli konveyer konstruksiyasini ishlab chiqish uchun bir qator shu vaqtgacha ma'lum. Vintli konveyerlar tuzilishi va ishlash tasniflari tahlil etildi va ularni natijasida linterlashdan olinaligan momiq sifatini ta'minlash va paxta chigitidagi chiqindilar miqdorini kamaytirish uchun vintli konveyerni takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqdik va bunda vintli konveyer qobiq'ini yarim silindr qismini paxta chigitlarini tashish jarayonida ajralib chiqayotgan chiqindilarni tashqariga chiqarishni samarali amalga oshiruvchi, turli yuzaga almashtirish tavsiyasi ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan vintli konveyer 1-rasmda tegishli qirqimlar bilan keltirilgan. Vintli konveyer quyi qismi yarim silindr shakliga ega va ustidan kopqok 2 bilan yopiladigan qobiq 1 ga ega. Qobiqli quyi yarim silindrik qismi, paxta chigitini tashishda ajralib chiqarilayotgan chiqindilari tashqariga chiqarib borish uchun, teshiklar 3 ga ega. Qopqoq chap qismida kiruvchi teshik 4 ga, qobiq 1 esa o'ng tarafida chiquvchi teshik 5 ra ega. Qobiq ichida vintli val 6 o'rnatilgan.

Chiqarib yuborilgan chiqindilarni olib ketish uchun qobiq tagida qiya tarnov 7 o'rnatilgan.

Vintli konveyer quyidagicha ishlaydi: jindan kelayotgan paxta chigitlari massasi qobiq 1 ga qopqoq 2 dagi kiruvi teshik 4 orqali uzatiladiva vint 6 ni aylanishi, uni ishchi yuzalari tomonidan xarakatlanishi natijasida, sirpanish bilan qobiq bo'ylab siljtilib, chiquvchi teshik 5 orqali chiqariladi. Ajratilgan chiqindilar qiya tarnov 7 yordamida olib ketiladi.

Paxta chigitlarini bunday xarakatlanishida ulardan chiqindilar tinimsiz ajralib chiqadilar va qobiqdan, unda teshiklar 3 bo'lgani sababli, tashqariga chiqarib yuboriladi.



1-qobiq, 2-qopqoq, 3-to'rtli yuza, 4-kiruvchi teshik, 5-chiquvchi teshik, 6-vint, 7-qiya qobiq.

**1-rasm. paxta chigitini tozalash qismiga ega takomillashtirilgan vintli konveyer**

### XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, paxta va tolani tozalash jarayonini tadqiq etish bo'yicha katta hajmdagi ishlar bajarilgdi va natijada qator yangi va takomillashtirilgan texnologik mashinalar va qurilmalar ishlab chiqildi, ularni ishlab chiqarishda qo'llanilishi, umuman olganda, paxta tozalash sanoati ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar sifatiga bo'lgan talabni qondiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirzoyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "Xalq so'zi", 15 yanvar 2017-yil.
2. Жуманиязов К. Создание системы транспорта и распределения средневолокнистого хлопка по поточным линиям очистки и батареям джинов. Дисс. канд.техн. наук. Т., 1989.
3. Зенков Р. Л.Машины непрерывного транспорта.М.: Машиностроения 1988.
4. Qodirov Y. Q. , Ravshanov D. A., Yunusov O. Q. O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2014
5. Davidboyev B. Ko'tarish tashish mashinalarini loyihalash. Darslik. T; O'zbekiston. 2011.
6. Изучения особенности транспортирования хлопка-сырца различной влажности средствами механического транспорта. Отчет ЦНИИХпрома НИР №25 Т., `1968.

7. Султанов А. Исследование по изысканию оптимальных способов очистки хлопка-сырца от мелкого сора. Дисс.канд. тех. Наук. Т., 1980.

8. Jo'rayev A., Mavlayev M. R., Abduraimov T., Miraxmedov J. Yu. "Mexanizmvamashinalarnazariyasi". (Darslik). :